

**O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA‘LIMI
VAZIRLIGI**

**MATEMATIK SAVODXONLIK
BO‘YICHA O‘QUVCHILAR
BILIMINI BAHOLASHGA
MO‘LJALLANGAN MASHQ
DAFTARI**

**Hudud (Qoraqalpog‘iston Respublikasi/
Viloyat / Toshkent shahar)**

Tuman (shahar) _____

Maktab _____

Ism _____

Familiya _____



PISA

Matematik savodxonlik bo'yicha o'quvchilar bilimini baholashga mo'ljallangan mashq daftari (matematika fanidan qo'shimcha didaktik material), Toshkent, 2020-yil 22 bet.

Tuzuvchilar:

D.Norboyeva – Xalq ta'limi vazirligi, boshqarma boshlig'i o'rinbosari

F. Abdullayev – Respublika ta'lim markazi, bo'lim boshlig'i

I.Saibova – Toshkent shahridagi 307-maktabning matematika fani o'qituvchisi

M. Xudoyberdiyeva – Toshkent shahridagi 216-maktabning informatika fani o'qituvchisi

Taqrizchi:

M. Shoniyozova – Toshkent shahridagi 300-maktabning matematika fani o'qituvchisi

Mazkur mashq daftari 7-8-sinf o'quvchilarining matematika fanidan olgan bilimlarini sinab ko'rish, mustahkamlash hamda o'quvchilarning xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishlariga yordam berish maqsadida ishlab chiqildi.

Didaktik material PISA (The Programme for International Student Assessment) tadqiqoti yondashuvlarining o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam beribgina qolmay, o'quvchilarning matematik savodxonlik darajasini baholash usullarini takomillashtirish imkonini ham beradi.

Mashq daftari PISA tadqiqotining 2006-yildagi manbalari asosida tayyorlangan.


MUNDARIJA

1	Kubchalar	4
2	Harakat grafigi	4
3	Plitkalar	5
4	O'yin kubchalari	5
5	O'smirlar	6
6	O'g'rilik	7
7	Bog'bon	7
8	Soat mintaqalari	8
9	Valyuta ayirboshlash.....	9
10	Eksport	10
11	Rangli konfetlar.....	10
12	Geografiyadan test	11
13	Kitob javoni	11
14	Maishiy chiqindilar	11
15	Pitsa	12
16	Zilzila.....	12
17	Biologiyadan testlar.....	13
18	Skeytbord	14
19	Zinapoya	15
20	Kubchalar	16
21	Saylov	16
22	Eng yaxshi avtomobil.....	17
23	Kvadrat zinapoyalar	18
24	Uchburchaklar	18
25	Olma ko'chatlari	19



KUBCHALAR


Quyidagi kubchalarning o'rnini o'zgartirmay, kamida nechta kubcha qo'shib, katta kubni hosil qilish mumkin?



HARAKAT GRAFIGI



Piyoda va velosipedchi harakati grafigidan foydalanib, to'g'ri mulohazani toping.

- A) A obyekt velosipedchi, B obyekt piyoda.
- B) Velosipedchi bir marta dam olgan, piyoda esa ikki marta.
- C) Piyoda va velosipedchi uchrashguncha turli masofalarni o'tishgan.
- D) Birinchi to'xtash joyigacha piyoda tezligi 4 km/h, velosipedchi tezligi 14 km/h bo'lgan.
- E) Velosipedchi soat 12:00 da, piyoda soat 13:20 da harakatni boshlagan.




PLITKALAR

Malikada qizil va qora plitkalar bor. Ulardan kvadratlar hosil qilmoqda. 3x3 o'lchamli shakl 1 ta qora va 8 ta qizil plitkalardan iborat. 4x4 shakl esa 4 ta qora va 12 ta qizil plitkadan iborat. 5x5 o'lchamli shaklda nechta qora va nechta qizil plitkalar bo'ladi?



O'YIN KUBCHALARI

Rasmdagi 6 ta kubcha a, b, c, d, e, f harflari bilan belgilangan. Har bir kubchani qarama-qarshi yoqlaridagi nuqtachalar yig'indisi yettiga teng. Har bir kubchani pastki yog'idagi nuqtalar sonini aniqlab, jadvalni to'ldiring.






O'SMIRLAR

Grafikda 1998-yili Niderlandiyalik yigit va qizlarning o'rtacha bo'yi o'sishining yoshiga bog'liqligi keltirilgan:

(Bo'yi cm)



1-savol: 1980-yilga nisbatan 1998-yilda 20 yoshli qizlarning o'rtacha bo'yi 2,3 cm ga oshib, 170,6 cm ga teng bo'ldi. 1980-yilda bu ko'rsatkich qanday bo'lgan?


2-savol: Grafik yordamida 12 yoshdan keyin qizlarning o'rtacha bo'y o'sishi sekinlashishini tushuntirib bering.

3-savol: Grafikdan foydalanib, qaysi yoshda qizlarning o'rtacha bo'yi shu yoshdagi o'g'il bolalarning o'rtacha bo'yidan baland bo'lishini aniqlang.

O'G'RILIK

Televizion ko'rsatuvda jurnalist quyidagi diagrammani namoyish etib, shunday dedi: "Diagramma shuni ko'rsatadiki, 1998-yilga nisbatan 1999-yilda o'g'riliklar soni keskin oshgan".

Bir yildagi o'g'riliklar soni



Jurnalist to'g'ri xulosa chiqardimi? Javobingizni asoslang.

BOG'BON

Bog'bonda 32 m sim bo'lib, u gul ekiladigan maydonni sim bilan o'rab olmoqchi. Gul ekish maydonining shaklini quyidagi shakllardan biri ko'rinishida tanlashi kerak.

Har bir shaklning chegarasini o'rab olish uchun 32 m sim yetishi yoki yetmasligidan kelib chiqqan holda, har bir shakl oldidagi "ha" yoki "yo'q" so'zini belgilang.

I shakl

10 cm

II shakl

10 cm

I	Ha/Yo'q
II	Ha/Yo'q
III	Ha/Yo'q
IV	Ha/Yo'q

III shakl



10 cm

IV shakl

10 cm

SOAT MINTAQALARI

Mark (Avstraliyaning Sidney shahridan) va Gans (Germaniyaning Berlin shahridan) bir-biri bilan internet orqali suhbatlashishadi. Buning uchun ular internetga bir vaqtda kirishlari lozim. Suhbat uchun qulay vaqtni aniqlash uchun, Mark dunyoning turli joylaridagi vaqt ko'rsatkichlari jadvalidan quyidagi ma'lumotlarni topdi:



1-savol: Sidneyda soat 19:00 bo'lganida Berlinda soat necha bo'ladi?

Mark va Gans, ularning mahalliy vaqti bo'yicha 9:00 va 16:30 vaqt oralig'ida suhbatlasha olishmaydi, chunki bu vaqtda ular maktabda bo'lishadi. Shuningdek, ular mahalliy vaqt bo'yicha 23:00 dan 7:00 gacha ham suhbatlasha olishmaydi, chunki bu vaqtda ular uxlashadi.

2-savol: Bolalar suhbatlashishi uchun qaysi vaqt qulay bo'ladi?

3-topshiriq: Jadvalda har bir shaharning mahalliy vaqtini ko'rsating.

Shahar	Vaqt
Sidney	
Berlin	

VALYUTA AYIRBOSHLASH

Singapurlik Mey-Ling, talabalar almashinuvi loyihasi bo'yicha 3 oyga Janubiy Afrikaga ketishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. U ma'lum miqdordagi singapur dollarlarini (SGD) janubiy afrika rendlariga (ZAR) almashtirishi kerak.

Mey-Ling singapur dollari va janubiy afrika rendi orasidagi ayirboshlash kursi $1 \text{ SGD} = 4,2 \text{ ZAR}$ ekanligini aniqladi.

1-savol: Mey-Ling ushbu kurs bo'yicha 3000 singapur dollarini almashtirgan bo'lsa, u qancha Janubiy Afrika rendlarini oldi?



Mey-Ling 3 oydan so'ng Singapurga qaytgach, unda 3900 ZAR qolgan edi. U bu pullarni yana Singapur dollarlariga ayirboshlash kursi quyidagicha o'zgartirganini inobatga olgan holda almashtirdi:

$1 \text{ SGD} = 4,0 \text{ ZAR}$.

2-savol: Mey-Ling qancha singapur dollarlarini qo'lga kiritdi?

3-savol: 4,0 ZAR kursi bo'yicha Mey-Ling Janubiy Afrika rendlarini Singapur dollarlariga almashtirganda u foyda ko'rdimi? Javobingizni izohlab bering.

EKSPORT

Diagrammalarda pul birligi zed bo'lgan Zedlandiyadan eksport haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.




1-savol: 1998-yilda Zedlandiyadan eksportning umumiy narxi (million zedlarda) qancha?

2-savol: Zedlandiyadan eksport qilingan mevali sharbatning 2000-yildagi umumiy narxi qancha?

- A) 1,8 million zed
- B) 2,3 million zed
- C) 2,4 million zed
- D) 3,4 million zed
- E) 3,8 million zed

RANGLI KONFETLAR

Robertning onasi unga quti ichiga qaramasdan, qutidan 1 dona konfet olishiga ruxsat berdi. Turli rangdagi konfetlar soni diagrammada ko'rsatilgan.



Savol: Robertning qizil rangli konfetni olish ehtimolligi qancha?

- A) 10%
- B) 20%
- C) 25%
- D) 50%

GEOGRAFIYADAN TESTLAR

Islomning maktabida geografiya o'qituvchisi o'quvchilardan testlar oldi va har bir testni bajarilishini 100 baldan baholadi. Birinchi to'rtta test uchun Islomning o'rtacha bahosi 60 ball. Beshinchi testda u 80 ball to'pladi.

Savol: Islomning geografiya bo'yicha testlardan to'plagan o'rtacha bali nechaga teng?

KITOB JAVONI

Kitob javonining bitta jamlanmasini yig'ish uchun duradgorga quyidagi materiallar kerak bo'ladi:

4 ta uzun yog'och panel;


6 ta kalta yog'och panel;

12 ta kichik tutqich;

2 ta katta tutqich va 14 ta shurup.

Duradgorda 26 ta uzun yog'och panel, 33 ta kalta yog'och panel, 200 ta kichik tutqich, 20 ta katta tutqich va 510 ta shuruplar bor.

Savol: Duradgor ushbu materiallardan eng ko'pi bilan qancha kitob javoni jamlanmasini yig'ishi mumkin?



MAISHIY CHIQINDILAR

“Atrofimizdagi olam” fanidan uy vazifasi sifatida o'quvchilar odamlar tashlab yuboradigan ayrim maishiy chiqindilarning parchalanashi uchun kerak bo'ladigan vaqt to'g'risida ma'lumot to'pladilar. Unga ko'ra:

- Banan po'chog'i – 1-3 yil;
- Apelsin po'chog'i – 1-3 yil;
- Karton korobkalar – 0,5 yil;
- Saqich – 20-25 yil;
- Gazetalar – bir necha kun;
- Polistirol chashkalar – 100 yildan ko'p.



O'quvchi bu ma'lumotlarni ustunli diagrammada ko'rsatmoqchi.
Bu ma'lumotlarni ifodalash uchun ustunli diagramma to'g'ri kelmasligining bitta sababini keltiring.

PITSA



Kafeda pomidorli va pishloqli pitsaga buyurtma berish mumkin. Lekin xohishga ko'ra qo'shimcha mahsulotli pitsa ham buyurish mumkin. To'rtta mahsulot: zaytun, go'sht, qo'ziqorin va kolbasa. Vazira ikkita qo'shimcha mahsulot qo'shib, bitta pitsa buyurmoqchi.

Savol: Necha xil variantda pitsa buyurish mumkin?

ZILZILA

Hujjatli filmda yer qimirlashi va uning qanchalik ko'p takrorlanishi haqida so'z borgan edi. Shuningdek, filmda yer qimirlashini oldindan aytib bera olish haqida bahs jarayoni ham ko'rsatilgan edi.

Unda geolog quyidagini ta'kidlagan edi: *“Zede shahrida keyingi 20 yil ichida yer qimirlashi ehtimoli uchdan ikkini tashkil etadi”.*



Savol: Quyidagi mulohazalardan qaysi biri geologning fikrini to'g'ri yetkazib beradi?

A) $\frac{2}{3} \cdot 20 = 13,3$ bo'lgani uchun Zede shahrida hozirgi vaqtdan 13 va 14 yillar oralig'ida yer qimirlashi sodir bo'ladi.

B) $\frac{2}{3} > \frac{1}{3}$ bo'lgani uchun Zede shahrida keyingi 20 yil ichida qachondir yer qimirlashi mumkin.


C) Zede shahrida keyingi 20 yil ichida yer qimirlashi ehtimoli, sodir bo'lmasligi ehtimolidan katta.

D) Aniq biron nima deb bo'lmaydi, chunki qachon yer qimirlashi mumkinligini hech kim bilmaydi

BIOLOGIYADAN TESTLAR

Quyidagi ustunli diagrammada A guruh va B guruh deb belgilangan o'quvchilar guruhlarining biologiyadan test natijalari keltirilgan.

Biologiyadan imtihonda o'quvchilarning olgan baholari



A guruhining o'rtacha bahosi 62,0 va B guruhining o'rtacha bahosi 64,5. Agar o'quvchi to'plagan ball 50 va undan yuqori bo'lsa, u vazifani bajargan hisoblanadi. Diagrammaga qarab o'qituvchi vazifani B guruh A guruhdan yaxshiroq bajargan degan xulosaga keldi. A guruh o'quvchilari uning fikriga qo'shilishmadi. Ular o'qituvchini B guruh o'quvchilari ulardan yaxshiroq topshirmaganligiga ishonitirishmoqchi.

Topshiriq: Diagrammadan foydalanib, A guruhi foydalanishi mumkin bo'lgan bitta matematik asos keltirib bering.

SKEYTBORD

Sanjar skeytbordda uchishni yaxshi ko‘radi. U “Sport” magaziniga ayrim mahsulotlar narxini aniqlash uchun tez-tez kirib turadi. Bu do‘konda to‘liq yig‘ilgan skeytbordni xarid qilish mumkin. Shuningdek, alohida platformani, 4 ta g‘ildirakli komplekt, 2 ta g‘ildirakli tutqich komplekt, skeytbordning metall va rezina detallari komplektlarini sotib olib, skeytbordni yig‘ish mumkin.

1-savol: Sanjar o‘zi skeytbord yig‘moqchi. Ushbu do‘konda skeytbordning barcha qismlari uchun eng ko‘p va eng kam qancha pul sarflashi mumkin?


(a) Zed da minimal narx: _____

(b) Zed da maksimal narx: _____

Mahsulot	Mahsulot narxi (zedlarda)	
Yig‘ilgan skeytbord	82 yoki 84	
Platforma	40, 60 yoki 65	
4 ta g‘ildirakli komplekt	14 yoki 36	
2 ta g‘ildirakli tutqich komplekt	16	
Skeytbordning metall va rezina detallari komplekti	10 yoki 20	

2-savol: Do‘konda tanlov uchun doskalarining 3 turi, g‘ildiraklarning 2 xil to‘plami, metal va rezina detallarning 2 xil turli to‘plamini taklif qilishadi. Bu holda asos g‘ildiraklarining faqat bitta to‘plami bor. Taklif qilinayotgan detallardan Sanjar nechta turlicha skeytbordlarni yig‘ishi mumkin?

- A) 6
- B) 8
- C) 10
- D) 12




3-savol: Sanjarda 120 zed bor va u bu pullarga yig‘ish mumkin bo‘lgan eng qimmat skeytbordni yig‘moqchi. Skeytbordning har bir 4 ta detaliga ko‘pi bilan qancha pul ishlatish mumkin? Javoblaringizni quyida keltirilgan jadvalga yozing.

Skeytbord qismlari	Sarflanadigan pul (zed)
Asos	
G‘ildiraklar	
G‘ildirak tutqichlari	
Metall va rezina detallar	


ZINAPOYA

Rasmda balandligi 252 cm, 14 ta zinapoyaga ega bo‘lgan zina tasvirlangan. Har bir zinapoyaning balandligi necha cm dan?




O‘YIN KUBCHALARI

O‘ng tomonda 2 ta o‘yin kubchalari tasvirlangan. O‘yin kubchalari oddiy emas, ular uchun quyidagi qoida qo‘llaniladi: *kubchaning ixtiyoriy ikki qarama-qarshi yoqlaridagi ochkolar yig‘indisi 7 ga teng.*



Siz oddiy o‘yin kubchasini karton bo‘lakchalarini kesib, yopishtirib yasashingiz mumkin. Buni turli usullarda bajarishingiz mumkin. Quyida 4 ta kubning yoyilmasi keltirilgan. Qarama-qarshi yoqlaridagi ochkolar yig‘indisi 7 ga teng bo‘ladigan kubchani qaysi yoyilmalardan yasash mumkin? Quyidagi jadvalning har bir qatoridagi “ha” yoki “yo‘q” so‘zini belgilang.



Yoyilma	Qarama-qarshi yoqlaridagi ochkolar yig‘indisi 7 ga teng
I	Ha/Yo‘q
II	Ha/Yo‘q
III	Ha/Yo‘q
IV	Ha/Yo‘q

SAYLOV

Zedlandiyada saylov oldidan prezidentning aholini qo‘llab-quvvatlash darajasini aniqlash maqsadida aholi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari quyida keltirilgan:

1-gazeta: 36,5% (so‘rovnoma 6 - yanvar kuni tasodifiy tanlov asosida, saylash huquqiga ega 500 ta fuqaro bilan o‘tkazilgan).

2-gazeta: 41,0% (so‘rovnoma 20 - yanvar kuni tasodifiy tanlov asosida, saylash huquqiga ega 500 ta fuqaro bilan o‘tkazilgan).


3-gazeta: 39,0% (so‘rovnoma 20 - yanvar kuni tasodifiy tanlov asosida, saylash huquqiga ega 1000 ta fuqaro bilan o‘tkazilgan).

4-gazeta: 44,5% (so‘rovnoma 20 - yanvar kuni tasodifiy tanlov asosida, saylash istagini bildirib qo‘ng‘iroq qilgan 1000 ta fuqaro bilan o‘tkazilgan).

Savol. Agar saylovlar 25-yanvarda o‘tkazilsa, Prezidentning qo‘llab-quvvatlash darajasini aniqlash uchun qaysi gazetaning natijalaridan foydalangan ma‘qul? Javobingizni asoslash uchun ikkita sababni ko‘rsating.

ENG YAXSHI AVTOMOBIL

Avtomobil jurnali yangi ishlab chiqarilgan avtomobillarni baholash maqsadida reyting sistemasidan foydalanadi va eng yuqori bahoni qo‘lga kiritgan avtomobilga “Yil mashinasi” nomini beradi. 5 ta yangi mashinalar reytingi o‘tkazildi, ularning natijalari jadvalda keltirilgan.



Avtomobil	Xavfsizlikni ta'minlanishi (S)	Issiqlikni saqlanishi (F)	Tashqi ko'rinish (E)	Ichki qulaylik (T)
Ca	3	1	2	3
M2	2	2	2	2
Sp	3	1	3	2
N1	1	3	3	3
KK	3	2	3	2

Reytingdagi ochkolar quyidagilarni bildiradi:

3 ochko – Ajoyib natija

2 ochko – Yaxshi natija

1 ochko – O‘rtacha natija

Jurnal avtomobilning umumiy bahosini hisoblash uchun mashina qo‘lga kiritgan barcha ochkolarning o‘rtachasiga qaraydi:

Umumiy baho: $3 \cdot S + F + E + T$

1-topshiriq: “CA” mashinasining o‘rtacha bahosini hisoblang. Javobni quyida yozing.

2-topshiriq: “CA” mashinasini ishlab chiqaruvchisi umumiy bahoni aniqlash qoidasi adolatsiz tuzilgan deb hisoblaydi. O‘rtacha bahosini hisoblashning shunday qoidasini tuzingki, “CA” mashinasi g‘olib bo‘lsin.


Hisoblash qoidangiz hamma 4 ta kattalikni o‘z ichiga olishi kerak. Quyidagi ifodada nuqtalar o‘rniga to‘tta musbat sonni qo‘yib, to‘g‘ri qonuniyat chiqaring.

Umumiy baho = S + F + E + T.

KVADRAT ZINAPOYALAR

Rustam kvadratlardan iborat “zinachalar” ketma-ketligini chizmoqda. Quyida yasash bosqichlari ko‘rsatilgan. Ko‘rinib turibdiki, birinchi bosqichda u bitta kvadratdan, ikkinchi bosqichda 3 ta kvadratdan va uchinchi bosqichda 6 ta kvadratdan foydalangan.






Savol: To‘rtinchi bosqichda Rustam nechta kvadratdan foydalanadi?



UCHBURCHAKLAR

Quyidagi berilgan ma‘lumotlardan foydalanib, belgilangan shaklga mos keluvchi javobni belgilang. To‘g‘ri burchakli PQR uchburchakning to‘g‘ri burchagi R. RQ tomoni PR tomondan kichik. M nuqta PQ tomonning o‘rtasi va N nuqta QR tomonning o‘rtasi. S nuqta berilgan uchburchakning ichida joylashgan. MN kesma MS kesmadan katta.

1-savol: Ushbu ta’rifga mos keluvchi uchburchakni belgilang.



OLMA KO'CHATLARI

Fermer bog'da olma ko'chatlarini rasmda ko'rsatilgandek kvadrat ko'rinishida ekdi. Ko'chatlarni shamoldan himoya qilish uchun atrofiga ignabargli daraxtlarni o'tqazdi. Bu yerda n - olma ko'chatlari soni.

$n = 1, n = 2, n = 3, n = 4$
x-ignabargli daraxtlar

● - olma ko'chatlari

1-topshiriq: Jadvalni to'ldiring:

n	Olma ko'chatlari soni	Ignabargli daraxtlar soni
1	1	8
2	2	
3	3	
4	4	

$n = 1$

X X X
X ● X
X X X

$n = 2$

X X X X X
X ● ● X
X X X
X ● ● X
X X X X X

$n = 3$

X X X X X X X
X ● ● ● X
X X X
X ● ● ● X
X X X X X X X

$n = 4$

X X X X X X X X
X ● ● ● ● X
X X X
X ● ● ● ● X
X X X X X X X X

X - ignabargli daraxt

● - olma

TOPSHIRIQLARNING JAVOBLARI

Kubchalar

Javob: kubning hamma qirralari teng , shuning uchun 4x4x4 kubda 64 ta kubcha bo'lishi kerak. Demak, $64-14=50$ ta.

Harakat grafigi

Javob: A obyekt 1 soatda 4 km bosib o'tdi, demak u piyoda.

B va D


Plitkalar

Javob: 9 ta qora va 16 ta qizil plitkalar bor.

O'yin kubchalari

Javob:

1	5	4
2	6	5



O'smirlar

1-savolning javobi: 168,3 cm

2-savolning javobi: Asosiysi, javobda qizlar bo'yining grafigi og'ishi ko'rsatilishi kerak. Qizlarning 12 yoshgacha va 12 yoshdan keyin bo'ylarini taqqoslamasi ham to'g'ri hisoblanadi.

3-savolning javobi: 11-13 yosh.

O'g'rilik

Javob: Jurnlist noto'g'ri xulosa chiqargan. Diagramma to'liq ko'rsatilmagan, jinoyat faqat 1,5-2 % ga oshgan.

Bog'bon

Javob:

I- ha

II-ha

III-ha

IV-yo'q

Soat mintaqalari

1-savolning javobi:

Sidneyda soat 19:00 bo'lganida Berlinda soat 10:00 bo'ladi.

2-savolning javobi:

Sidney 16:30 – 18:00; Berlin 7:30 – 9:00 yoki Sidney 7:00 – 8:00;
Berlin 22:00 – 23:00

3-topshiriqning javobi:

Shahar	Vaqt
Sidney	17.00
Berlin	8.00

Valyuta ayirboshlash

1-savolning javobi-12600 ZAR

2-savolning javobi- 975 SGD ni qo'lga kiritdi

3-savolning javobi-Ha, 4,2 ZAR foyda, 1 dollarga 929 ZAR olardi

Eksport

1-savolning javobi-27,1 mln zed (27 zed) yoki 27100000 zed

2-savolning javobi- E. 3,8 mln zed

Konfetlar

Javob: B. 20%.

Geografiyadan testlar

Javob: o'rtacha ball 64 ga teng.

Kitob javoni

Javob: eng ko'pi bilan 5 ta kitob javoni yig'ishi mumkin.

Maishiy chiqindilar

Javob:

Bu ma'lumotlarni bitta ustunli diagrammada ifodalashning imkoni yo'qligiga sabab berilgan ma'lumotlar kattaligi orasidagi farq juda kattaligidir.

- Ustunli diagrammadagi ustunlar orasidagi farq juda katta
- Agar Polistirol chashkalar haqidagi ma'lumotni 10 cm li ustunda ifodalasak, u holda karton korobkalarni ifodalashimiz uchun 0,05 cm li ustundan foydalanishga to'g'ri keladi.

Yoki bunga sabab berilgan ma'lumotlar o'rtasidagi noaniqlik tufayli.

- Polistirol chashkalar haqidagi ma'lumotni ifodalagan ustun aniq emas.
- Berilgan 1-3 yillik ma'lumotni yoki 20-25 yillik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ustunli diagrammani qurish mumkin emas.

Pitsa

Javob: 6 xil variantda pitsa buyurtirish mumkin

Zilzila

Javob: C

Biologiyadan testlar

Javob: A guruhda testdan muvaffaqiyatli o'tganlar soni ko'proq. Bittagina past ball olgan o'quvchi butun guruhning o'rtacha balini tushirib yuborgan. Aslida A guruh o'quvchilari testni yaxshiroq bajargan. 80 balidan yuqori balni ko'proq A guruhidagilar olishgan.

Skeytbord

1-savolning javobi: minimal 80 va maksimal 137

2-savolning javobi: D. 12

3-savolning javobi: Asos-65, g'ildiraklar-14, g'ildirak tutqichlari-16, metall va rezina detallar-20

Zinapoya

Javob: 18

Kubikchalar

Javob: Yo'q, Ha, Ha, Yo'q

Saylov

Javob: 3-gazeta, saylovga yaqin va saylash huquqiga ega ko'proq odam bilan o'tkazilgan.

Eng yaxshi avtomobil

1-savolning javobi-"CA" ning o'rtacha bahosi: 15 ochko

2-savolning javobi- "CA" mashina g'olib bo'lgan barcha javoblar

Kvadrat zinapoyalar

Javob: 10 ta

Uchburchaklar

Javob: D

Olma ko'chatlari

Javob:

t/r	Olma ko'chatlari soni	Ignabargli daraxtlar soni
1	1	8
2	2	16
3	3	24
4	4	32



PISA

**Manzil:10017, Toshkent,
Navoiy ko'chasi, 2a-uy
Telefon: +998 71 241-01-86
[web-site: www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
[e-mail: uzedu@exat.uz](mailto:uzedu@exat.uz)**